Orqa miya ustunlari

Orqa miyaning 3 ta ustuni farq qilinadi. Bular – oldingi, orqa va yon ustunlar. Oldingi ustun *(funiculus anterior)* ikkala oldingi shox orasi-da joylashgan bo'lib, chap va o'ng tomondagi oldingi ustunlarni bir-biridan *fissura mediana anterior* ajratib turadi. Oldingi ustundan quyidagi yo'llar o'tadi: 1) oldingi (kesishmagan) piramidal yo'l *(tr. pyramidalis anterior); 2)* vestibulospinal yo'l *(tr. vestibulospinalis);* 3) tektospinal yo'l *(tr. tectospinalis);* 4) oldingi spinotalamik yo'l *(tr. spinothalamicus anterior) (4.4-rasm).*



4.4-rasm. Orqa miyaning oq moddasi tuzilishi **va o**'tkazuvchi yo'llari

Orqa ustun ***(funiculus posterior)*** ikkala **orqa** shox orasida joylashgan bo'lib, chap va o'ng tomondagi orqa ustunlarni bir-biridan ***sulcus medianus posterior*** ajratib turadi. Orqa ustundan Gollning nozik tutami ***(fasciculus gracilis Golli)*** va Burdaxning ponasimon tutami ***(fasciculus cuneatus Burdach)*** o'tadi. Bular – chuqur sezgi yo'llari. Shuningdek, bu ustundan taktil sezgi uchun mas'ul tolalar ham o'tadi.

Yon ustun ***(funiculus lateralis)*** oldingi va orqa shoxlar orasida joylashgan bo'lib, quyidagi yo'llardan iborat: 1) lateral (kesishgan) piramidal yo'l ***[tr. pyramidalis lateralis);*** *2)* rubrospinal yo'l ***(tr. rubrospinalis);*** 3) retikulospinal yo'l ***(tr. reticulospinal);*** 4) yon spinotalamik yo'l ***(tr. spinothalamicus lateralis);*** 5) Govers tutami yoki oldingi spinoserebellyar yo'l ***(tr. spinocerebellaris anterior Gowers);*** 6) Fleksig tutami, orqa spinoserebellyar yo'l ***(tr. spinocerebellaris posterior Flechsig);*** 7) spinotektal yo'l ***(tr. spinotectal).***

Manba: © Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b
© Ibodullayev ensiklopediyasi © www.asab.uz